

PARONIMLAR

Mingqulova Farzona Ibodulla qizi

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti,

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 311-guruh talabasi

fmingqulova@gmail.com

Tel: +998882822992

Annotatsiya: Mazkur maqolada paronimlarning o'zbek tilidagi ahamiyati, ularning ot, fe'l va sifat turkumlaridagi namunalari, shuningdek, ularning grammatik, fonetik, semantik va stilistik xususiyatlari batafsil o'rganilgan. Paronimlarning tilda yuzaga kelishining mohiyati va ular bilan bog'liq mantiqiy xatolarni oldini olish zaruriyati yoritilgan. Shuningdek, maqolada paronimlarni o'rgatish metodikasiga alohida e'tibor qaratilib, o'quvchilarga so'z tanlash madaniyati va nutqiy aniqlikni oshirishda qanday yondashuvlar qo'llanilishi kerakligi haqida fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: paronimlar, o'zbek tili, leksik birliklar, stilistika, tilni o'rgatish metodikasi, so'z tanlash madaniyati, nutqiy aniqlik, o'qitish usullari, semantik sezgirlik, tahlil qilish ko'nikmalari.

Abstract: The article studies in detail the significance of paronyms in the Uzbek language, their examples in the noun, verb and adjective categories, as well as their grammatical, phonetic, semantic and stylistic features. The essence of the occurrence of paronyms in the language and the need to prevent logical errors associated with them are highlighted. The article also pays special attention to the methodology of teaching paronyms, and expresses opinions on what approaches should be used to improve the culture of word choice and speech accuracy of students.

Key words: paronyms, Uzbek language, lexical units, stylistics, language teaching methodology, word choice culture, speech accuracy, teaching methods, semantic sensitivity, analysis skills.

O'zbek tilining leksik boyliklari orasida paronimlar alohida mavqega ega bo'lib, ular tilshunoslikda ham, tilni o'qitish metodikasida ham o'rganilishi zarur bo'lgan muhim

birliklardandir. Paronimlar talaffuz va yozilishda fonetik yaqinlikka ega, biroq semantik jihatdan farqlanuvchi soʻzlardir. Ular sinonimlar va omonimlardan farqli tarzda oʻziga xos xususiyatlarga ega boʻlib, toʻgʻri kontekstdagina oʻz maʼnosini toʻliq ifoda etadi. Tilshunoslikda paronimlar turli fan vakillari tomonidan tahlil qilingan boʻlsa-da, bu hodisaning taʼlimdagi, xususan, metodik nuqtai nazardan oʻrganilishi ham dolzarb ahamiyatga ega.

Oʻzbek tilida paronimlar koʻpincha mustaqil soʻz turkumlarida — ot, feʼl va sifatlarda uchraydi. Bu soʻz turkumlari paronimlarning leksik-semantik tizimidagi faolligini koʻrsatadi. Ot turkumidagi paronimlar orasida “bosqonchi” – “bosqinchi”, “sutxoʻr” – “sudxoʻr”, “qaroqchi” – “qarovchi”, “qoʻnoqchi” – “qoʻniqchi” kabi juftliklar paronimik munosabatni aniq ifodalaydi. Bu soʻzlar fonetik jihatdan juda yaqin, lekin semantik jihatdan mutlaqo farqli. Ularni toʻgʻri tushunish va farqlash, ayniqsa oʻquvchilarning nutq madaniyatini shakllantirishda katta rol oʻynaydi. Bu kabi juftliklar tahlil qilinmay, tushuntirilmay qolsa, nutqda ifoda xatolari yuzaga keladi. Shuning uchun paronimlar boʻyicha dars oʻtishda bu soʻzlar kontekstda qanday ishlatilishini koʻrsatish, ularni har xil vaziyatlarda tahlil qilish talab etiladi.¹

Feʼl turkumiga oid paronimlar esa harakat, holat, munosabat, oʻzgarishni ifodalovchi birliklardir. “Koʻmmoq” – “koʻnmoq”, “egallamoq” – “egarlamoq”, “yasanmoq” – “yasalmoq”, “tovlanmoq” – “toblanmoq” kabi feʼllar talaffuz jihatdan oʻxshash, lekin bajariladigan harakat yoki holatning mohiyati jihatidan keskin farqlanadi. Oʻquvchilarda bunday paronimlarni farqlash koʻnikmasini shakllantirish uchun ularni kontekstda qoʻllatish, ularning qatnashgan gap tuzilishini tahlil qilish, feʼlning bogʻlanish imkoniyatlarini koʻrsatish juda muhim.

Paronimlarni oʻrgatishda quyidagi metodik tavsiyalarni qoʻllash samarali boʻladi. Avvalo, paronimlarni tematik guruhlariga ajratish kerak: shaxsga oid paronimlar, faoliyatga oid paronimlar, tabiat va hayotga oid paronimlar. Har bir guruhdagi paronimlar alohida kontekstda oʻrganilishi, ularning farqlari real hayotiy vaziyatlarda koʻrsatilishi lozim. Misol

¹ OʻZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA 29-SON ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI 20.04.2024 [3. 10]

uchun, “moyxo‘r” va “mayxo‘r” paronimlarini tushuntirishda sog‘lom turmush tarzi va zararli odatlar mavzusi bilan bog‘liq topshiriqlar berilishi mumkin. Bu yondashuv nafaqat til bilimini, balki tarbiyaviy maqsadni ham qamrab oladi.

Dars jarayonida paronimlar bo‘yicha mashqlar tuzish — o‘quvchilarda mustaqil tahlil qilish, mantiqiy fikrlash va matn bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Paronimlarga oid mashqlar quyidagi shakllarda berilishi mumkin: “To‘g‘ri so‘zni tanlang”, “Gapdagi xatoni toping”, “Juftini toping”, “Paronimni kontekstda ishlating”, “Har bir paronim bilan gap tuzing”, “Paronimlarning morfologik tarkibini tahlil qiling”.

Shuningdek, “Chalkash paronimlar” deb nomlangan o‘yin shaklidagi mashqlar orqali o‘quvchilarda so‘z sezgirligi va fonetik farqlash qobiliyati ortadi. Bu darslar ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarni bajaradi.

Yana bir muhim metodik yo‘nalish — bu paronimlarni boshqa leksik hodisalar bilan qiyoslab o‘rganishdir. Paronimlar sinonim, omonim, antonimlar bilan farqli jihatlari orqali tahlil qilinsa, o‘quvchining leksik bilim doirasi kengayadi. Masalan, paronimlar fonetik yaqinlik asosida yuzaga kelgan bo‘lsa, sinonimlar ma’no yaqinligi asosida yuzaga keladi. Omonimlar esa butunlay farqli tushunchalarni ifoda etib, shakl birligi asosida bog‘lanadi. Bunday taqqoslash asosida har bir leksik hodisaning xususiyati aniq ko‘rinadi.

Paronimlarni o‘qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Onlayn topshiriqlar, QR-kodli matnlar orqali interfaol o‘qitish imkoniyati yaratiladi. Bu orqali o‘quvchilarning motivatsiyasi ortadi, dars jarayoni esa samarali va qiziqarli bo‘ladi. Ayniqsa, darsga tayyorlangan maxsus paronimlar lug‘ati, slaydlar, video-darslar metodik bazani boyitadi.

Paronimlarni tahlil qilish va ularni o‘qitish faqat tilshunoslik bilan cheklanib qolmay, uslubiy jihatlardan ham yondashishni talab etadi. O‘quvchilarning aqliy tafakkuri, eslab qolish qobiliyati, matnga emotsional yondashuvi kabi omillar paronimlarni o‘zlashtirish darajasiga bevosita ta’sir qiladi. Shu sababli metodik yondashuvda har bir paronimga bog‘liq individual yondashuv, differensial topshiriqlar, darsda izchil takrorlashlar muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, paronimlar til boyligini ifodalovchi vositalardan biri sifatida nafaqat nazariy, balki amaliy va metodik jihatdan chuqur o'rganilishi lozim bo'lgan birliklardandir. Ularni o'rganish orqali o'quvchilarda so'z tanlash madaniyati, leksik tafovutlarni anglash, to'g'ri ifodalash va mantiqiy tahlil qilish ko'nikmalari shakllanadi. Paronimlar til o'rganish jarayonida nafaqat nutq aniqligi, balki estetik ifoda, uslubiy sezgirlik, obrazlilik va stilistik moslikni ham ta'minlovchi kuchli vositadir. Shunday ekan, paronimlar nafaqat tilshunoslik obyektidir, balki ularni o'qitish o'quvchilarning tafakkurini, til madaniyatini va umumiy saviyasini oshiruvchi ta'sirchan pedagogik vositadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Dadaxo'jaev E. Leksik paronimiya va so'z variantlari // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1988. –№2. –B.34–37.
- 2.Mirtojiyev M. O'zbek tili semasiologiyasi. –Toshkent: Mumtoz so'z, 2010. –288 b.
- 3.Mirtojiyev M. O'zbek tilida polisemiya. –Toshkent: Fan, 1975. –140 b.
- 4.Ponomarenko T.G. Paronimy i kontekst // Yazykovye edunitsy i kontekst. –L., 1973. T.I. – S. 82-88.
- 5.Rahmatullaev SH. O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari. – Toshkent: Fan, 1966. – 264 b.
- 6.O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA 29-SON ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI 20.04.2024 [3. 10]